



Taraqqiyot odimlari



QIT'ANING ENG YIRIK INVESTITSIYA TADBIRI

IV TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDA IQTISODIYOT UCHUN MUHIM LOYIHA VA SHARTNOMALAR IMZOLANDI

Poytaxtimizda joriy haftaning eng muhim tadbiriga aylangan, minglab xorijlik investor va sarmoyadorlarni yurtimizga chorlagan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi o'z ishini yakunladi. Aniqrog'i, jahon e'tiborida bo'lib turgan yirik anjumaning qizg'in ruhida o'tgan tadbirlari, yuqori darajadagi uchrashuvlar, sessiya va biznes muloqotlarning bu yilgi rejasi nihoyalandi. Ammo xalqaro forumga doir amaliy harakatlar endi boshlanadi. Boisi, tadbir doirasida rejalashtirilgan tashabbuslar hamda imzolangan kelishuvlar barqaror rivojlanish va investitsiyalarni jalb etish yo'lida faol ish yuritilishini va'da qilmoqda. Bu yilgi forum doirasida iqtisodiyot uchun muhim loyihalar kelishuviga erishilgani jahon sarmoyadorlarining O'zbekistonga qiziqishi oshib borayotganidan dalolat.

Ular forum doirasidagi tadbirlarda ham buni alohida ta'kidladi. Axir 7500 dan ortiq delegat, jumladan, qariyb 100 davlatdan 3000 ga yaqin xorijlik mehmonni bir platformada jamlash oson emas. Investorlarni mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati, rivojlanish yo'lidagi imkoniyatlari, taklif etayotgan tashabbuslari, qolaversa, mahalliy va xorijlik ishbilarmonlar uchun yaratilgan sharoitlar qiziqitmoqda.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi xorijlik ishbilarmonlarga O'zbekistonning investitsiya salohiyati bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyat, hamkorlik kelishuvlari uchun o'zaro muloqot maydonini yaratib berdi. Mazkur

platforma ishi, aniqrog'i, xalqaro forum tadbirlari bir necha kun dunyo e'tiborida bo'ldi. 31 mamlakatdan kelgan 114 nafar akkreditatsiyadan o'tgan jurnalist va media mutaxassis jarayonni keng yoritib bordi. Jumladan, CNN, "Euronews", "The Guardian", "Al Jazeera" kabi yetakchi OAVlar forum ishi va natijalari haqida maqolalar e'lon qildi. Ularda Toshkent xalqaro investitsiya forumi qit'aning eng muhim iqtisodiy platformasi sifatida e'tirof etilmoqda. Anjumanda faol ishtirok etgan xorijlik ishbilarmonlar ham buni ta'kidlab, tadbirga yuqori baho berdi.

Davomi 3-betda



IQTISODIY SALOHİYAT NAMOIYISHI ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISH UCHUN PLATFORMA

Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozorlariga chiqishda yirik muloqot, tanishuv, hamkorlik va kelishuvlar maydoni vazifasini o'tamoqda. To'rtinchi forum juda keng ko'lam kasb etdi. Unda xalqaro hamjamiyat e'tiboriga energetika, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalarni qazib olish, raqamli texnologiyalar va boshqa strategik muhim sohalarga oid umumiy qiymati 30 milliard dollardan ortiq investitsion loyihalar taqdim etildi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va samarali boshqarish har qanday davlat uchun iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri. O'zbekiston ayni yo'nalishda so'nggi yillarda keskin ildamladi. Xususan, sarmoyaviy muhitni yaxshilash, qonunchilikni liberallashtirish va barcha yo'nalishlarda ishlohtlarni amalga oshirish orqali mamlakat mintaqa yetakchisiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent xalqaro investitsiya forumi mintaqa miqyosidagi eng nufuzli tadbirlardan biri bo'ldi. Mazkur anjuman O'zbekiston qanday investitsiya imkoniyati taklif etayotgani, qaysi sohalarga e'tibor qaratayotgani va jahon biznes hamjamiyati bu jarayonga munosabatini yaqqol ko'rsatadigan maydon hisoblanadi.

Davomi 2-betda

Hududlarda



TAXTAKO'PIR – HAYOTDAN ROZILIK YO'LIDAGI ISHONCH KO'PRIGI

Taxtako'pirlar Muratbay Ayimbetovning qo'lida hunari bor, ammo shunga yarasha ish, ro'zg'origa yetadigan nasibani uyidan olislaymay topish mushkul edi. Shu bois, u ish axtarib xorijga ketishga majbur bo'ldi. Bir necha vaqt vatandan uzoqda yurdi. Keyingi yillardagi ishlohtlar, xususan, Taxtako'pir tumanidagi o'zgarishlar uyiga qaytishiga umid berdi.

Bu shunchaki umidvorlik emas, insonlarni roz qilish yo'lidagi ishlohtlarga yuksak ishonch edi. Shu bois, Muratbay imkoniyatlardan keng foydalanib, tadbirkorlikni boshladi. U "Taxtako'pir" shaharcha fuqarolar yig'ini hududida "From mebel" xususiy korxonasini ochib, mebel ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Kechagina mehnat muhojiri bo'lib yurgan

yurtdoshimiz tumandagi yetakchi tadbirkorlar safidan joy oldi. Xususan, 2023-yilda faoliyatini kengaytirish maqsadida hududdagi kichik sanoat zonasida bo'sh turgan binoni investitsiya kiritish sharti bilan xarid qildi.

Davomi 4-betda

INSONIYLIK VA TENG IMKONIYATLAR FALSAFASI

Yangi O'zbekistondagi har bir ishlohtda xotin-qizlar manfaatini ko'zlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish maqsad qilinishi shunchaki rasmiy bayonot emas, bu amalda hayotga tatbiq etilayotgan siyosatdir. Ishlohtlar samarasida bugun gender tenglik haqidagi gaplar faqat shior bo'lib qolmay, hayotda o'z ifodasini topa boshladi. Hatto xalqimiz ongida ham ayollarga nisbatan qarashlar sezilarli darajada o'zgaradi.

Yurtimizda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va ularga teng imkoniyat yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlar, avvalo, huquqiy baza yaratilishi orqali amalga oshirilmoqda. Ishlohtlarning yangi hayotbaxsh to'lqini boshlangan keyingi yillarda bu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soni va ulardagi mexanizmlar mustahkam ijtimoiy o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va

erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohaslarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi", deya belgilab qo'yildi. Bu norma ilk bor Konstitutsiya darajasida gender tenglikni kafolatlaydigan qonuniy asos bo'ldi.

Shuningdek, Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha komissiya faoliyati kuchaytirilib, qator davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmogda. Bu

jarayon "Yangi O'zbekiston — inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasidir.

Taraqqiyot modelida ham bu faqat iqtisodiy va siyosiy rivojlanish emas, balki insoniylik va teng imkoniyatlar falsafasidir. Keng qamrovli ishlohtlar markazida inson huquq va erkinliklari, ayniqsa, xotin-qizlarning hayotdagi munosib o'rini ta'minlash masalasi turibdi.

Davomi 5-betda



Bugunning gapi

AGRAR TARMOQ: RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA VA IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV



Iqlim o'zgarishi allaqachon jahon global muammolaridan biriga aylanib, agrar soha barqarorligini ta'minlashda jiddiy tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Harorat oshib, yog'ingarchilik rejimi keskin o'zgarib borayotgani, qurg'oqchilik va tabiiy ofatlar kuchayayotgani qishloq xo'jaligi uchun katta xavf tug'dirmogda.

Davlatimiz rahbari joriy yil 3-mart kuni qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga oid taqdimot bilan tanishish chog'ida tarmoq rahbarlari bilan uchrashib, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash masalalarini muhokama qildi. Keyingi yillarda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirish va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha qator iqtisodiy ishlohtlar amalga oshirib kelinmogda.

Xususan, Prezidentimizning 2019-yil 23-oktabrdagi farmoni asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida sohani raqamlashtirish, suvtejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va tarmoqda innovatsiyalarni qo'llash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Davomi 4-betda

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM

IQTISODIY SALOHİYAT NAMOYISHI

ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISH UCHUN PLATFORMA

Boshlanishi 1-betda

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi haqli ravishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki tashqarida ham investitsiyaviy va iqtisodiy hamkorlik istiqbolini muhokama qilish uchun asosiy maydonga aylandi. Bu galgi tadbirning ahamiyati, ayniqsa, yuqori. Zero, O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'ta jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot sifatidagi mavqei bilan mustahkamlashda davom etmoqda. Xususan, so'nggi yillarda respublikada keng o'lamli islohotlar amalga oshirilib, biznes yuritish uchun shart-sharoit tubdan yaxshilandi, xorijiy investorlar uchun ajoyib imkoniyatlar yaratildi. Mamlakat siyosiy barqaror, puxta o'ylangan iqtisodiy siyosat yuritmoqda, jozibador bozor, zarur resurslar, sifatli infratuzilmaga ega.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil birinchi chorakda O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiya hajmi 120,4 trilyon so'mni tashkil etdi. Jami 90 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb etildi. O'tgan yil mamlakat iqtisodiyoti 6 foiz o'sishni namoyish etdi. Joriy yil 1-may holatiga ko'ra, xorijiy investitsiya asosida ishlayotgan korxonalar soni 16 mingdan oshgan. Bu Markaziy Osiyo mintaqasi uchun g'oyat ta'sirchan ko'rsatkich.

O'zbekistonda tez rivojlanayotgan mamlakat uchun investitsiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida xorijiy investitsiya masalasiga keng o'rin ajratilgan. Jamoatchilik muhokamasi natijasi va Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'rtirilgan tajriba asosida ishlab chiqilgan mazkur loyihalar mohiyatan mamlakatni yalpi ichki mahsuloti 200 milliard dollarga chiqadigan iqtisodiy yetakchiga aylantirish bo'yicha puxta o'ylangan "yo'l xaritasi"dir. Bunday ulkan maqsadga erishishda investitsiya forumi muhim ahamiyat kasb etadi. Anjuman davlat va biznesning samarali muloqotini ta'minlash uchun asosiy maydonga aylanmoqda deyish mumkin. Masalan, avvalgi, uchinchi forumda rekord — 26,6 milliard dollar qiymatidagi bitimlar imzolangan.

O'zbekiston investorlarni "yashil" energetika, mashinasozlik, logistika, sun'iy intellekt va biznesning boshqa sohalaridagi



Ibrohimjon FOZILJONOV,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori

texnologik loyihalarning uzviy qismi bo'lishga chaqiradi.

To'rtinchi forumning o'ziga xos xususiyatini namoyon etadigan tarixiy birinchi investitsiya ko'rgazmasida transmilliy va xorijiy kompaniyalar o'z loyihalari bilan qatnashdi, mahalliy biznes esa xalqaro auditoriyaga mavjud imkoniyatlarini namoyish etdi.

Mamlakatning modernizatsiya va barqaror taraqqiyot yo'lidagi strategik hamkoriga aylanib borayotgan xalqaro moliya institutlari faoliyati alohida sahifa. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hisobotiga ko'ra, 2024-yilda respublika iqtisodiyoti 6,5 foiz o'sishga boshqa omillar qatori 27,6 foizni tashkil etgan investitsiya ham salmoqli hissa qo'shgan. Bu xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish

orqali O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash rag'batlantirilayotganining yorqin namunasidir. Umuman, mamlakatning eng yirik investorlaridan biri hisoblangan mazkur moliya tuzilmasi 177 loyihaga 5 milliard yevrodan ortiq sarmoya kiritgan. Osiyo infratuzilmaviy investitsiya banki (OIB) ham energetika infratuzilmasini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda.

Gaz loyihalari ko'mir energetikasidan qayta tiklanadigan energiya manbalarining yanada ekologik yechimlariga o'tishda muhim bosqichdir. Islom taraqqiyot banki (ITB) Markaziy Osiyoda jami 8,39 milliard dollarlik 462 ta loyihani moliyalashtirgan. O'zbekiston bu borada yaqqol yetakchi: 168 loyihadan 73 tasi allaqachon yakunlangan, 95 tasi amalga oshirilmoqda. ITBning O'zbekistondagi umumiy moliyasi 4 milliard dollarga yetdi. Bu Markaziy Osiyodagi umumiy majburiyatning qariyb yarmi. Demak, nufuzli tuzilma respublikaning yuqori investitsiya jozibadorligini e'tirof etib, iqtisodiy siyosatiga yuksak ishonch bildirib kelmoqda. O'zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi ayni yo'nalishda 2025-yilning eng muhim voqeasi sifatida baholalanmoqda. Mamlakat bank kapitalidan 10 foiz ulush olib, uchinchi yirik aksiyadorga aylandi. Natijada yangi investitsiya resurslariga yo'l ochilib, mintaqaviy hamkorlik doirasida turli infratuzilmaviy va iqtisodiy loyihalar amalga oshirish imkoniyati kengaydi. Umuman, O'zbekiston IV Toshkent xalqaro investitsiya forumini ajoyib ko'rsatkichlar bilan kutib oldi. Iqtisodiyot 2024-yilda ishonchli o'sish ko'rsatkichini namoyish etdi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti 2023-yildagiga nisbatan 6,5 foiz ortib, qariyb 115 milliard dollarga yetdi.

Keng qamrovli islohot, faol xalqaro hamkorlik yurt fuqarolari farovon kelajak sari ishonch bilan borishi uchun mustahkam paydevor yaratmoqda. Bundan tashqari, nufuzli anjuman butun mintaqaga global iqtisodiy zanjirining mustahkam halqasiga aylanishini ta'minlaydi.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar — oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda. Shu bois, xalqaro investitsiya forumida davlatimiz rahbari

hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekistonning tashqi maydondagi imijini yaxshilaydi.

Farovon O'zbekistonni barpo etishning asosiy strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi alohida o'rin egallamoqda, bunda integratsiyalashgan iqtisodiy siyosat, diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish yo'nalishlari, davlat kafolatlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq imtiyozlari va sarmoya uchun qulay muhit yaratish borasidagi qat'iy siyosat natijasida respublika

qozonish va islohotlar ichilligini ta'minlash yo'lida O'zbekiston dadil qadamlar tashlashini e'lon qildi. Eng avvalo, global ishlab chiqarish zanjirlarida har bir davlat uchun teng sharoitni ta'minlaydigan ishonchli qoidalar o'rnatilishida Jahon savdo tashkilotining alohida o'rni bor. Shu bois, O'zbekiston 2026-yilda ushbu tashkilotning a'zosiya aylanish bo'yicha katta maqsad qo'ygan. Buning uchun o'nlab qonun, yuzlab standartlar xalqaro talablarga moslashtirildi va bu ishlar shu yil to'liq yakuniga yetkaziladi.

Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitdagi kafolatlovchi "milliy rejim" joriy qilinadi, davlat organlari bilan munosabatga kirishishda "yagona daracha" tamoyili ta'biq etilishi belgilandi, investitsiya faoliyatini ortiqcha tekshiruvlardan kafolati himoyalash tizimi yaratiladi. Bular orqali 2030-yilga borib O'zbekistonning kredit reytingini "investitsion" darajaga olib chiqish maqsad qilingan. Bundan tashqari, davlat kompaniyalarini xususiy lashtirishda ularni yurtimiz farovonligiga xizmat qiluvchi yirik aktivlarga aylantirish ko'zda tutilgan. Shu bois, 18 ta yirik kompaniya va bankdagi qariyb 2 milliard dollarlik davlat ulushini o'zida birlashtirgan Milliy investitsiya jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma boshqaruviga nufuzli "Franklin Templeton" kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilning o'zida jamg'armaning aksiyalar paketi xalqaro IPOga chiqariladi. Shuningdek, professional konsultantlar jalb qilinib, ikki yilda 29 ta yirik davlat kompaniyasi xususiy lashtirildi.

Rivojlangan mamlakatlarda to'plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o'rganish, yutuq va kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o'taydi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim voqea bo'lib, mamlakatning rivojlanishiga, investitsiya jalb etishga va xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Forum mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyish etish, investorlar bilan muloqot o'rnatish va investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi.



dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga bo'lgan umumiy ishonchni tiklashga, mojarolarni faqat diplomatiya yo'li bilan yechishga chaqiradi.

Forum xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish imkoniyatlarini o'rganish, yangi loyihalarni muhokama qilish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun qulay platforma yaratadi. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Jalb etilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmaviy rivojlantirish, texnologiyalarni transfer qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Forum xalqaro moliya institutlari, hukumatlar, biznes vakillari va ekspertlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi,

Markaziy Osiyodagi eng jozibador investitsiya manzillaridan biriga aylandi. Budget taqchilligini kamaytirish, ichki bank sektorini rivojlantirish, davlatga qarashli korxonalar sharti majburiyatlarini kamaytirish, xususiy sektorning faol rolini oshirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, texnik ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim va sanoat o'rtasidagi tafavutni qisqartirish, bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratishda qat'iy davom etish, iqtisodiy institutlarni mustahkamlash va boshqalar O'zbekistonda farovon jamiyat qurish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari forumdagi nutqida investorlarning ishonchini yanada ko'proq

O'ZBEKISTON INVESTORLARGA KO'PROQ DAROMAD OLISH IMKONINI BERMOQDA

Xurshid ASATULLAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Mamlakatimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyot barqaror o'syapti. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foiz oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar ko'payib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushdi.

2018-2024-yillarda kiritilgan 120 milliard dollarlik investitsiya hisobiga 6 mingdan ortiq korxonalar ishga tushdi. Tahlil qiladigan bo'lsa, bugungi kunda har ming dollarlik investitsiya yiliga o'rtacha 530 dollar qo'shilgan qiymat yaratyapti. Shunday ekan investitsiya samaradorligini oshirish hudud va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifasi bo'lib xizmat qilishi lozim.

Investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlaridan biri eksportdir. Erkin iqtisodiy hududlardagi korxonalar kiritgan sarmoyasiga qarab imtiyoz olyapti.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda 22 ta erkin iqtisodiy zonadagi 589 ta korxonalar 42 trilyon so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Lekin tovarlarning 18 foizi tashqi bozorlarga sotilgan.



Davlatimiz rahbari 2025-yil 21-aprelda investitsiya sohasida 2025-yilning birinchi choragida qilingan ishlar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Unda Prezidentga xorijiy investitsiyani o'zlashtirish bo'yicha yilning birinchi choragi natijalari va kelgusi vazifalar taqdim etildi. Uch oyda 8,7 milliard dollar sarmoya jalb qilingan bo'lib, ko'rsatkichni yil yakuniga qadar 42 milliard dollarga yetkazish, har bir investor bilan yaqindan ishlab, samaradorlikni oshirish rejalashtirilgan O'zbekistonga investorlarni keng jalb etish uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilganidan dalolat beradi.

Chetdan jalb qilinayotgan bu mablag'lar evaziga energetika, metallurgiya, kimyo, farmatsevtika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, kommunal va ijtimoiy sohalarda ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunda qo'shilgan qiymat va ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz investitsiya masalasida o'tkazilgan yig'ilishda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida

har bir investor bilan yaqindan ishlab, xorijiy sarmoyalar samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidladi. Eng asosiysi — yangi investitsiya loyihalarini tezroq ishga tushirib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish muhimligini qayd etdi.

Mazkur haftada Toshkentda to'rtinchi bor o'tkazilgan xalqaro investitsiya forumi mamlakatimizga investitsiyalar oqimi yanada kengayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Davlatimiz rahbari 2024-yil 19-dekabr kuni investitsiya bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda buning uchun xorijiy investorlar bilan manzilli ishlab, yanada qulayliklar yaratish, erishilgan barcha kelishuvlarni yuqori darajada amalga oshirish zarurligini ta'kidlagandi.

Xullas, yangi O'zbekiston investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakatidir. Zero, hozirgi davrda jahonda investitsiya va bozorlar uchun raqobat keskin ortib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston investorlarga ko'proq daromad olish va tanlash imkoniyatini yaratib bermoqda.

SARMOYAVIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MAYDONI

O'tgan yili iqtisodiyotimiz 6,5 foiz o'sdi, bu esa yurtimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, jozibali sarmoyaviy muhit yaratish borasida tanlangan yo'limiz to'g'riligini tasdiqlaydi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini 200 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, bu jarayon xorijiy investitsiyalarda asosiy o'rin tutadigan "yo'l xaritasi" bilan mustahkamlangan.

2017-yildan buyon mamlakat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy o'sishga zamin bo'lmoqda.

O'tgan yili iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko'payib, 36 milliard dollardan oshdi. Bularning hisobiga yil boshidan buyon qo'shimcha 70 trilyon so'mlik qiymat beradigan 560 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushirildi. Bu esa joriy yilda eksporti yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyatini paydo qilmoqda.

2022-yildan buyon imzolangan investitsiya bitimlari miqdori 44 milliard dollardan oshgan. Loyihalarning aksariyati amalga oshirilgan yoki qurilish bosqichida.

Bu yilgi moliya-xo'jalik yilida 43 milliard dollarlik investitsiya o'zlashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu 300 dan ortiq yirik loyihani bajarish, import o'rini bosuvchi 662 ta yangi mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 19-dekabr kuni investitsiya bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda buning uchun xorijiy investorlar bilan manzilli ishlab, yanada qulayliklar yaratish, erishilgan barcha kelishuvlarni yuqori darajada amalga oshirish zarurligini ta'kidlagandi.

Xullas, yangi O'zbekiston dunyoga eshiklarini ochib, investorlarni mashinasozlik, avtomobilsozlik, energetika, moliyaviy texnologiya va hatto sun'iy intellekt sohasidagi yirik loyihalarining bir qismi ishtirokchisi bo'lishga taklif qilmoqda.

Jahondagi murakkab vaziyat, eksport logistikasi zanjirlari muvakkilashayotgani, asosiy eksport



Erkinjon BOTIROV,
iqtisodiyot fanlari doktori

bozorlarimizdatayyor mahsulot olish kamayayotgani hududlarda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash zarurati keltirib chiqarmoqda.

2030-yilgacha yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga olib chiqish maqsadi belgilangan bo'lib, bu investitsiyaviy loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirib, yuqori qiymatli mahsulot va xizmatlarni ko'paytirishni, eksport geografiasini kengaytirishni talab etadi.

Poytaxtimizda o'tkazilgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi nafaqat yirik sarmoyadorlar, balki aholi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki investitsiya hududlarimizning iqtisodiy rivojlanishi, joylarda yangi ish o'rinlari yaratilishi, talab darajasida xizmatlar sifati va aholi turmush darajasi muntazam oshib borishi garovidir.

Forum doirasida dunyoning qariyb 100 mamlakatidan 3000 nafarga yaqin ishtirokchi, mingdan ortiq kompaniya Toshkentdagi sarmoyaviy muhit bilan tanishish, investitsiyaviy loyihalar

yuzasidan muzokaralar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Forumda e'lon qilingan yirik sanoat, agrar, logistika va infratuzilma loyihalari minglab yangi ish o'rinlari yaratadi. Bu, ayniqsa, yoshlar va kasbga ega mutaxassislar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Agrobiznes, IT, kimyo, qurilish, turizm va energetika kabi sohalarga yirik investitsiya jalb qilinishi ham iqtisodiy manfaatdorlik, ham aholi uchun qulayliklar yaratadi.

Shu bilan birga, investitsiyani ortib borishi faqat xo'jalik subyektlari ko'payishi bilan emas, balki xizmat ko'rsatish sifati oshishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalar kirib kelishini ham bildiradi. Jumladan, logistika tizimlari, raqamli xizmatlar, ta'lim va tibbiyot kabi sohalardagi xorijiy investitsiyalar o'z fuqarolari uchun hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Forum miqyosida raqamli transformatsiya, "yashil iqtisodiyot", energetika, turizm va ta'lim sohalarida o'nlab innovatsion g'oyalar taqdim etildi. O'z navbatida, ularning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimiz aholisi uchun xaridorlar va sifati xizmatlar, ekologik toza mahsulotlar hamda yangi infratuzilmalarni shakllantirishga asosiy omil bo'ladi.

Xalqaro investitsiya forumi yurtimizdagi islohotlar natijasini ko'rsatuvchi, yangi taraqqiyot bosqichi sari tashlangan qat'iy qadam bo'lib, ishsizlikka qarshi amaliy choralar, sifatli xizmatlar va raqobatbardosh mahsulotlar, jahonning O'zbekistonga ishonchi, xalq farovonligi uchun investitsiyaviy rivojlanish bosqichidir.

Eng muhimi, mamlakatimizda sog'lom, ochiq va shaffof investitsiyaviy muhit yaratish, biznes yuritishda qulayliklar berish bugungi davlat siyosatining markazida turgani va bu boradagi kafolatlar, huquqiy himoya mexanizmlari va faol islohotlar xalqaro investorlarni jalb qilishga sabab bo'lmoqda.

Qolaversa, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, global geoyimiy beqarorlik, moliyaviy tanqislik va jahon YIM o'sishining sekinlashuvi sharoitida investitsiya nafaqat iqtisodiy o'sish, balki tinchlik va barqarorlik omilidir.

Sarmoyaviy istiqbol va iqtisodiy hamkorlikni muhokama qilish uchun muhim xalqaro maydonga aylangan O'zbekiston Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlati hamda "investorlar uchun katta imkoniyatlar mamlakati" sifatida barcha xorijiy sarmoyadorlarni to'liq va ishonchli qo'llab-quvvatlaydi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM

QIT'ANING ENG YIRIK INVESTITSIYA TADBIRI

IV TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDA IQTISODIYOT UCHUN MUHIM LOYIHA VA SHARTNOMALAR IMZOLANDI

Boshlanishi 1-betda

Jim ROJERS,
Investor, biznesmen va moliyaviy sharhlovchi:

— Xalqaro forum xorijlik ishbilarmonlarga O'zbekistonning investitsiya salohiyati bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. Tadbir nufuzi ancha yuqori ekaniga guvoh bo'ldik. Bu ishtirokchilarning soni va albatta, jahon investitsiya sanoatida tutgan o'rnidan ham ko'rinib turibdi. Yirik ishbilarmonlarni O'zbekistonda rivojlanish, qulay biznes muhiti va ochiq siyosati o'ziga jalb qilib, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda. Bu yerda deyarli barcha yo'nalishda sarmoya kiritib, yirik loyihalarni amalga oshirish mumkin. Chunki hamma soha keyingi yillardagina rivojlana boshlagan



va bu investorlar uchun xuddi hosildor yerga nihol qadab, tezda natijasi ko'rish kabi keng imkoniyat borligini bildiradi. Bunday

tadbirlar amaliy natijalarga boy bo'lishi shubhasiz.

Investor hech qachon biror loyihaga o'z-o'zidan sarmoya kiritmaydi. O'ziga hamkor izlashdan avval atrofini o'rganadi, sarmoya kiritmoqchi bo'lgan mamlakatning imkoniyatlari bilan tanishadi, tahlil qilib, o'zicha chamalaydi. Shundan keyingina bir qarorga keladi. Chunki amalga oshiriladigan loyihaga katta pul tikilar ekan, uning samara berishi barcha tomon uchun birdek zarur. Atrofga qaraganda sarmoya kiritishga arzigulik joylar ko'p emasligi ko'rinadi. To'g'ri, Xitoy ko'p jihatdan yaxshi hudud. O'zbekiston esa investitsiya kiritish uchun ajoyib joy. Ko'pchilik bu yerga qanday qilib o'z mablag'ini yo'naltirishi bilmaydi. Imkoniyatim bo'lsa, O'zbekistonga ancha ko'p investitsiya kiritgan bo'lardim.

Sohaga oid yangi qonun qabul qilinadi

Tarik SAHOVICH,
Xalqaro moliya korporatsiyasi vakili:

— O'zbekistonda investitsiyaga oid qonun qabul qilinishi rejalashtirilgan. Forum doirasidagi panel sessiyada mazkur qonunning investorlarning bevosita va bilvosita huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish tizimi haqida gaplashdik. Yangi hujjat xalqaro arbitraj va sud tizimi orqali investorlarni samarali himoya qilishni ham nazarda tutadi. Amaliyotda mustaqil shaxsiy investitsiya hamda boshqa investitsiya shartnomasini imzolash zarurati bo'lmaydi. Ya'ni xorijiy investorlar shartnoma imzolamay turib ham qonun bilan belgilangan imkoniyatlardan foydalana oladi.



Faoliyatim davomida 20 dan ortiq davlatda 30 dan ziyod loyiha bo'yicha ishlaganman. Investorlar uchun huquqlari kafolati eng muhim jihatlardan biridir. Shu bois, xorijlik investorlar huquqlarini himoya qiladigan qonun bo'lishi zarur, biroq bu amalda ishlashi va zamon talablariga javob berishi kerak. Bunday huquqiy kafolat investorlarning himoya ostida ekaniga ishonchni mustahkamlaydi.

Qaysi yo'nalishlarga ko'proq sarmoya kiritilmoqda?

Ana shunday yirik investorlar ko'payishi ortidan mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada o'sadi, sohalar rivojlanib, ko'proq ish o'rni ochiladi. Forumning poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan yalpi majlisida shu jihatlar urg'u berildi. Davlatimiz rahbari chet ellik investorlar uchun taqdim etilishi kutilayotgan yangiliklarni ham e'lon qildi. Ular orasida xorijiy investorlar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlaydigan "milliy rejim", davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlikda "yagona darcha" tamoyilini joriy etish, investitsiya faoliyatini kafolati himoya qilish tizimini yaratish kabilor bor. Bu investorlar hamda investitsiya yuzimzi iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Bunga javoban xorijlik mehmonlar ham O'zbekistonning ishonchli hamkori bo'lishga tayyorligini bildirdi. Yalpi majlisda so'zga chiqqan chet elliklar qaysi yo'nalishlarda investitsiya kiritish maqsadida ekanini gapirdi. Xususan, BRIKS Yangi taraqqiyot banki rahbari Dilma Rusef bunday dedi:

“

Mazkur iqtisodiy forum yakunida mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, transport, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi, energetika, oziq-ovqat sanoati, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va metallurgiya kabi sohalarda 15 ta loyiha bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlar imzolandi.

— Slovakiya biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda ikki davlat ishbilarmonlari qatnashib, o'zlar uchun yangi bo'lgan bozor bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur iqtisodiy forum yakunida mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, transport, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi, energetika, oziq-ovqat sanoati, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va metallurgiya kabi sohalarda 15 ta loyiha bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlar imzolandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-2024-yillarda O'zbekiston va Slovakiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi deyarli 6 barobar oshgani holda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon

sanoati uchun butlovchi qismlar yetkazib beruvchi davlatlardan. Mutaxassislarining aytishicha, Slovakiya eksporti diversifikatsiya qilishda O'zbekistonni muqobil bozor sifatida ko'ryapti. Shu bois, ikki davlat o'rtasida avtomobilsozlik sohasidagi hamkorlikdan tashqari, "yashil" texnologiyalar, IT xizmatlari yo'nalishlarida ham aloqalarni chuqurlashtirish maqsad qilingan. Forum doirasida erishilgan kelishuvlar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining keyingi kuni yanada qizg'in tus oldi. Tadbir doirasida ilk bor milliy Investitsiya ko'rgazmasi tashkil etildi. Unda neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati kabi 10 dan ortiq istiqbolli tarmoqda faoliyat yuritayotgan 90 dan ziyod yetakchi mahalliy kompaniya o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Xorijlik mehmonlarga O'zbekiston brendi ostida ishlab chiqarilayotgan yuzlab mahsulotlar namoyish qilindi.

Umuman, joriy yilgi forum dasturi tadbirlarga boy bo'ldi. Panel uchrashuvlar, davra suhbatlari, sessiyalar davomida chet ellik va mahalliy ishbilarmonlar investitsiya sohasini rivojlantirish tendensiyalari, raqamlashtirish, "yashil" energetika, elektron tijorat hamda xalqaro miqyosda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni muhokama qildi. Turli soha mutaxassislari, mashhur investor va ishbilarmonlar forum doirasida tashkil etilgan qator yo'nalishlardagi panel sessiyalarda ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biriga aylangan to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati yo'nalishidagi sessiyada o'rtaga tashlangan mavzular va ma'ruzachilarning fikr-mulohazalari ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

etmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yili 59,7 million dollarni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 29,4 foiz o'sgan. Slovakiya O'zbekistonga avtomobil

Je Yong PARK,
"Youngone Corporation"
kompaniyasi prezidenti:

— O'zbekiston tabiiy tola va to'qimachilik bo'yicha o'zining an'anaviy ishlab chiqarish yo'liga egaligi bilan mashhur. Bu mamlakatda mahalliy sanoat va hunarmandchilik taraqqiy etganidan dalolat. Ammo bugun ishlab chiqarishda yangi va zamonaviy bosqichga o'tish muhim. Bu borada O'zbekiston iktita asosiy jihatga e'tibor qaratishi kerak.

Birinchidan, yuqori darajali texnologiyalar, ayniqsa, kimyoviy tola sarmoya kiritish zarur. Bu to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida bosqichma-bosqich rivojlanish emas, balki oldinga sakrash imkonini beradi.



poydevorsiz sifat va samaradorlikni ta'minlash imkonisiz.

Faqat ishlab chiqarish sexslarining kuchiga tayanish qanchalik muhimligi borasida aniq xulosa bera olmayman. Chunki bu omil butun sanoat salohiyatini yoki oshiradi pasaytiradi. Shuning uchun paxta va tabiiy tolni qayta ishlash bilan cheklanib qolmaslik kerak. O'zbekiston sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish va aholing ishchi kuchidan unumli foydalanishda davom etishi muhim. Shundaygina jahon bozorida uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlay oladi.



Katta kompaniyalardan samarali loyihalar

“

Forum doirasida Toshkent viloyatida quvvati 1400 megavatt bo'lgan issiqlik elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirish, Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida quvvati 500 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish va Namangon viloyatining Pop tumanida quvvati 200 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo'yicha investitsiya hamda elektr energiyasini sotib olish bitimlari imzolandi.

Mamlakatimiz investitsiya sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi investorlar uchun ochiq va ishonchli iqtisodiy muhit yaratishga qaratilgan. Bu boradagi amaliy harakatlari esa allaqachon natija beryapti. Xorijlik sarmoyadorlarning O'zbekistonga ishonchi yuqori, gigant loyihalarni qo'rqmay, ikkilanmay amalga oshiryapti. Nafaqat poytaxtimiz, balki eng chekka hududlardagi loyihalarga ham sarmoya kiritilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi sakkiz yilda O'zbekistonga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi qariyb 10 barobar ko'paygan. Shu davra umumiy qiymati 150 milliard dollardan ortiq bo'lgan 97 mingga yaqin yirik strategik, tarmoq va hududiy loyiha amalga oshirilib, 2 millionga yaqin yangi ish o'rni ochildi.

Bu kabi investitsiyaviy loyihalar, avvalo, mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, qolaversa, sohalar taraqqiyotiga xizmat qiladi. Boisi, qaysi tarmoqni olib qaramang, barchasi iqtisodiy masalalarga bog'liqligi ko'rinadi. Shuning uchun bugun investitsiya, ya'ni chetdan sarmoya kiritishga iqtisodiyot rivojining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Amalg oshiriladigan loyihalardan esa investorlar ham birdek manfaatdor.

Shunday qilib, IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunida iqtisodiyot uchun muhim hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

Joriy yilgi hamkorlik va erishilgan kelishuvlar nafaqat qiymat, balki ko'lam jihatidan ham ancha keng. Xususan, tadbirning dastlabki kunlaridayoq "ACWA Power", "Bell Engineering Software Technologists", "HYPER Partners", "Shaani Road And Bridge Group", "TK-CH GROUP", "Uz Oman Capital" kabi xorijiy kompaniyalar bilan 30 dan ortiq investitsiya shartnomasi imzolandi. Asosiy bitimlardan biri O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda "Uz Oman Capital" o'rtasida Markaziy Osiyo to'g'ridan to'g'ri investitsiya jamg'armasini tashkil etish bo'yicha anglashuv memorandumining imzolanishi bo'ldi.

Shuningdek, Afg'oniston sanoat va savdo vaziri vazifasini bajaruvchi Nuriddin Aziziy bilan muzokaralardan so'ng ikki muhim hujjat — Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim hamda 2025-2026-yillarga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy va sanoat sohasidagi hamkorlik dasturi imzolandi. Xususi sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) va OPEC

yetakchi kompaniyalar 8 milliard dollardan ziyod investitsiya kiritib, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. "DataVolt" kompaniyasi O'zbekistonda eng yirik "yashil" ma'lumotlar markazini qurmoqda, "Veon" esa sun'iy intellektga asoslangan mobil superloyiha yaratish boshlagan.

Asosiy, xorijlik investorlar erkin faoliyat yuritishi uchun mamlakatimizda barcha sharoit yaratilyapti. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar to'planib, bildirilgan tashabbuslardan 40 dan ziyodi solalab olingan. Jumladan, sarmoyadorlar soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarni ko'paytirish, infratuzilma sohasidagi xususiy sektor ulushini oshirish bo'yicha takliflar bergan. Yig'ilishda davlatimiz rahbari shu haqda gapirib, "Biz ularning barchasini albatta inobatga olamiz va kengash a'zolari bilan har bir taklif ustida jiddiy ishlayapmiz. Masalan, 2028-yilga qadar biznes uchun asosiy soliq stavkalarini o'zgartirishni e'lon qildik. Joriy yilda yo'l, transport, energiya, suv, irrigatsiya sohasidagi qariyb 4,5 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalari boshladik. Xalqaro moliya hisobotlari standartlariga o'tish hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvni joriy etish bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda", dedi.

Xalqaro taraqqiyot jamg'armasi o'rtasida 50 million dollarlik o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. 2025-2030-yillarga mo'ljallangan ushbu hujjat O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ozarbayjonning "Agalor Development" kompaniyasi bilan esa Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida "Sea Breeze Uzbekistan" nomli to'rt fasli kurortni qurish loyihasi amalga oshirildi.

Forum doirasida Toshkent viloyatida quvvati 1400 megavatt bo'lgan issiqlik elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirish, Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida quvvati 500 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish va Namangon viloyatining Pop tumanida quvvati 200 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo'yicha investitsiya hamda elektr energiyasini sotib olish bitimlari imzolandi.

Yana bir kelishuv loyihasiga ko'ra, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi Sariosiyo tumani "Bog'cha" aholi punktidan Shahrisabz tumani Kamar qishlog'iga olib boruvchi yangi pulli avtomobil yo'li quriladi. Yangi Namangon shaharchasi hududida esa zamonaviy ko'p qavatli uy-joy va ofislar barpo etiladi. Xavfli chiqindilarni qayta ishlash orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish loyihasini moliyalashtirish bo'yicha ham kelishuvga erishilgan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda sanoat, energetika, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab investitsiya shartnomalari imzolandi. Ushbu loyihalarni yaqin yillarda amalga oshirish bevosita mamlakat taraqqiyotiga, aholi bandligini ta'minlash va farovonligini oshirishga, hududlarda infratuzilma, iqtisodiyot tarmoqlari keng rivojlanishiga yo'l ochadi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida poytaxtimizda mehmon bo'lgan yirik investor va ishbilarmonlar kelgusida mamlakatimizga katta loyiha va sarmoyalar bilan qaytadi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugunning gapi

AGRAR TARMOQ:

RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA VA IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV



Oybek FAYZIYEV,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Agrar tarmoqda ishlab chiqarishni yuqori unum bilan rivojlantirish va pirovardida aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyos. Sun'iy intellekt, dronlar, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari, sensorlar va blokcheyn kabi zamonaviy vositalar iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish, resurslarni tejash hamda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, "AgroTech" startaplari va "Aqli fermerlik" loyihalari amalga oshirilishi mazkur sohani texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarishni real vaqtda nazorat etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bugun qishloq xo'jaligida dronlar, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari, sun'iy yo'ldosh monitoringi, sensorlar va boshqa raqamli yechimlar amaliyotga faol tatbiq etilyapti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrda tegishli qarori bilan tasdiqlangan Agrar ta'lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasida asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi sohasida ta'lim sifatini oshirish, ilg'or innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalarni joriy qilish hamda kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, "Aqli qishloq xo'jaligi" (Smart Agriculture) konsepsiyasini amalga oshirish, resurs tejaydigan texnologiyalarni keng tatbiq etish, ilmiy tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini

ta'minlash strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Strategiyada kadrlar tayyorlash sifatining pastligi, ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada rivojlanmagan, agrar oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, agrobiznes va startaplari uchun zarur infratuzilmani yaratish kabi masalalar hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida agrar ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga olib chiqish, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy tajriba asosida yangi o'quv dasturlari va kadrlar tayyorlash modellari joriy etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorlarida zamonaviy IT texnologiyalardan keng foydalanish, fermerlar va agrobiznes subyektlari uchun raqamli yechimlarni joriy etish, suv omborlari va irrigatsiya tizimlarini avtomatlashtirish kabi yo'nalishlar sohaning asosiy mexanizmlari sifatida ko'rsatilgan.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi va unga muvofiq ishlab chiqilgan davlat dasturi qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishni birligiga bog'lovchi uzviy tizimni shakllantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim yo'nalish sifatida namoyon

bo'lmoqda. Ushbu strategiya qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish, bog'dorchilik, issiqxona xo'jaliklari, chorvachilik va parrandachilik sohalarda avtomatlashtirilgan va intellektual texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlab va saqlash jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish kabi muhim vazifalarni qamrab oladi.

xo'jaligida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 200 milliondan ziyod daraxt ekish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish



Shuningdek, strategiya doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, uglerod neytralligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va iqtisodiyotni "yashil" rivojlanish yo'lga o'tkazish kabi maqsadlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularga erishishda qishloq

va ekologik xavfli ishlab chiqarishlarni cheklash kabi chora-tadbirlar nafaqat qishloq xo'jaligi sohasida, balki umummilliy ekologik barqarorlikka erishishda ham muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda.

Ekologik yondashuvlar orqali qishloq xo'jaligida tabiiy muhofaza qilish, resurs tejakorligi va uglerod neytralligi kabi global maqsadlarga erishish mumkin. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi sharoitida bu kabi yondashuvlar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, soha barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli transformatsiya va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining uyg'unlashgan holda joriy etilishi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Masalan, raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni tezkor tahlil etish, resurslardan oqilona foydalanish va real vaqtda aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa fermerlar uchun iqlim o'zgarishi kabi xatarlarga

moslashish, tavakkalchilikni kamaytirish va hosildorlikni barqaror ushlab turishga yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt va sensor texnologiyalari qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali tezkorlik, aniqlik va yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bilan



birga, bunday yondashuvlar atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiradi va uglerod izini qisqartiradi. Yana alohida ta'kidlash kerakki, iqlim o'zgarishiga moslashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aniq hisob-kitoblar qilish va ularni samarali boshqarishni talab etadi. Raqamli texnologiyalar resurslarni tejash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishda muhim vositalardan biri hamdir.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyulda tegishli qaroriga muvofiq Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Mazkur institut raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar qilish, jumladan, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni amalga oshirish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2021-yil 3-fevraldagi tegishli farmoni asosida qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini yanada rivojlantirishga, zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada raqamli yechimlar va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasida tadqiqotlar olib boradi va qishloq xo'jaligida raqamli yechimlarni joriy etish bo'yicha ham ishlaydi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida ham raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qishloq xo'jaligi sohasida qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bajarilayapti.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida geografik axborot tizimlari — GIS va dronlar

keng qo'llanilmoqda. Ular yer holatini kuzatish, hosildorlik darajasini baholash va zararkundalarni aniqlashda foydali hisoblanadi. Bu texnologiyalar fermerlarga tezkor va aniq ma'lumotlar berish orqali o'z qarorlarini faktlarga asoslangan holda qabul qilishga ko'mak beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt — AI va mashina o'rganishi algoritmlari ham qishloq xo'jaligi sohasida o'z o'rnini topmoqda. Bu texnologiyalar hosildorlikni oldindan bashorat qilish, suv va o'g'itlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. GIS va dronlar bergan ma'lumotlar AI yordamida tahlil qilinib, fermerlarga aniq tavsiyalar taqdim etiladi, bu esa resurslar tejaliishi va mahsulot hajmi ortishiga olib keladi.

Internet texnologiyalari asosida ishlovchi masofaviy monitoring tizimlari ham joriy etilmoqda. Ular suv sarfi, tuproq namligi va havo sharoitlarini kuzatib boradi. Mazkur ma'lumotlar fermerlarga sug'orish va o'g'itlash jarayonlarini vaqtda va to'g'ri tashkil etish imkonini yaratadi.

Ayni paytda fermerlarning mahsulotlarini bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida elektron tijorat platformalari rivojlanmoqda. Ushbu platformalar orqali fermerlar mahsulotlarini onlayn sotishi, vositachilarni chetlab o'tib, to'g'ridan to'g'ri iste'molchilar bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Bu esa fermerlar daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va fermerlar daromadini ko'paytirishga qaratilgan. O'zbekistonda ayrim fermer va dehqon xo'jaliklari bu texnologiyalarni amaliyotda joriy etib, natijadorlikka erishmoqda. Masalan, "Agroplatforma" axborot tizimi fermerlar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatishga yordam bermoqda. Fermerlar bu tizim orqali mineral o'g'itlar, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslarga buyurtma berishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yaxshilab, tejakorlikni oshiradi.

Shuningdek, "Agrosubsidiya" axborot tizimi fermerlarga davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordam — subsidiyalarni bo'yicha onlayn murojaat qilish imkonini yaratadi. Ushbu jarayon tez va shaffof bo'lib, fermerlar uchun katta yengillik beradi. Shu orqali ular ishlab chiqarish hajmini oshirib, faoliyatini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali fermer va dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va o'z daromadlarini oshirish imkonini topmoqda. Barcha texnologiyalar o'zaro uzviy bog'liq holda ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bir necha yillar davomida olib borilgan kuzatuv va tahlillarimiz hamda o'rganishlarimiz shundan dalolat bermoqdiki, dronlardan foydalangan fermer xo'jaliklari ushbu natijalarga erishish imkonini izohlaydi. Ya'ni birinchidan, fermerlarda dronlardan foydalanib, sug'orish va o'g'itlash xarajatlarini 30 foiz kamaytirish imkoniyati yuzaga kelishi mumkin. Ikkinchidan, ular yordamida zararkundalarni 2-3 kun ichida aniqlash, bu kasalliklar tarqalishining oldini olishga yordam berishi mumkin. Uchinchidan, ayrim joylarda hosildorlik 15-25 foiz oshgani kuzatilgan.

Hududlarda

TAXTAKO'PIR — HAYOTDAN ROZILIK YO'LDAGI ISHONCH KO'PRIGI

“

Bir paytlar tuman nomiga asos bo'lgan taxtakopirik bugun olis tarixga aylandi. Yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar esa hayot ummonidagi bugun va kelajak degan ikki qirg'oqni birlashtiradigan ishonch nomli mustahkam ko'prikka aylanib ulgurdi.

Boshlanishi 1-betda

Bankning 350 million so'm imtiyozli krediti hisobida mebel ishlab chiqarish uchun zarur zamonaviy uskuna xarid qilindi. Bu aholi talablariga mos keladigan sifatli mebellar ishlab chiqarishda qo'l kelyapti, — deydi Muratbay Ayimbetov. — Sa'y-harakatimiz samara beryapti. Masalan, korxonamizda 8 kishi ish bilan ta'minlangan. Yiliga 720 million so'mlik mebel va temir buyumlar ishlab chiqaryapmiz.

Shu o'rinda Qoraqalpog'iston shimolidagi eng olis hududlardan biri bo'lgan Taxtakopir tumanining nomlanishiga to'xtalsak. Tuman hududidan daryo oqib o'tgan. Uning ikki qirg'og'ini bog'lash uchun 1904-yilda ko'prik qurish zarur bo'lgan. O'sha zamonlarda elning oqsoqollari maslahatlashib, teraklarni kesib, ko'prik qurgan. Muayyan vaqt o'tgach, 1928-yili tuman tashkil etiladi. Unga nom berish uchun hududdagi ko'prik asos bo'ladi. Shu tariqa tuman Taxtakopir nomini oladi. Chunki bir paytlar biyday dasht bo'lgan bu joyda ko'zga ko'rinadigan boshqa bunyodkorlik ishi bo'lmagan. Zamonlar o'tdi, davr o'zgaradi. Bugun Taxtakopir tuman eng chekka hudud bo'lishiga qaramay, O'zbekistondagi katta ahamiyatga ega

yirik loyihalar maydoniga aylandi. Kelajakka ishonch va umid bog'lagan aholining orzulari ro'yobga chiqmoqda. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihalar Taxtakopir kabi chekka joylarda boshlanib, yurtimiz bo'ylab keng quloq yozmoqda. Buning natijalari esa oddiy aholining turmush tarzida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Taxtakopir tumanida yangi ish o'rinlari ochish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida ham keng ko'lami ishlar bajarilayapti. Bunga misol qilib, "Qarao'y" o'val fuqarolar yig'ini hududidagi "Kausar tegirmon" chorvachilik korxonasini ayitish mumkin. Korxonada umumiy qiymati 32 milliard so'mlik loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirgacha chorvachilik kompleksiga 120 bosh naslli qoramol olib kelindi. Shuningdek, sutni qayta ishlash loyihasi doirasida 10 ga yaqin ish o'rni ochildi.

O'tgan yili xorijdan 120 bosh naslli mo' imtiyozli shartlarda olib kelindi. Ilgari chorvachilik sohasida bunday imkoniyatlar bo'lmagan, — deydi korxonasi ish yurituvchisi Baxtiyor Madremov. — Bizda 3 yillik imtiyoz bor. Bundan oqilona foydalanaymiz. Hozir 35-40 sigirdan 400 litr atrofida sut sog'ib olinmoqda. Sut mahsulotlarini tumanimizdagi bolalar bog'chalariga yetkazib beryapmiz.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ushbu korxonada qiymati 878 ming dollarlik yungni qayta ishlash loyihasiga qo'l urilgan. Loyiha to'liq ishga tushgach, 15 kishi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Xitoydan olib kelingan uskunalar yordamida yungni qayta ishlaymiz, — deydi korxonasi texnologiyasi Asebay Bekmuratov. — Korxonamiz "yashil" energiya yordamida ishlaydi. Buning uchun 450 kilovatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilgan. Bugun Taxtakopirda ishlab chiqarilayotgan osh tuzidan nafaqat mahalliy aholi, balki germaniyaliklar ham foydalanmoqda. "Good

Salt Production" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy bahosi 20 milliard so'mlik osh tuzini ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilgan. Ushbu korxonada 25 fuqaroning doimiy bandligi ta'minlangan. Korxonaga yiliga 6,5 milliard so'mlik 10 ming tona osh tuzi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mahsulotlar mahalliy bozor va Yevropaga, jumladan, Germaniyaga yiliga 200 ming dollarlik qiymatda eksport qilinmoqda.

Korxonamizda, asosan, mahalliy aholi ish bilan ta'minlangan. Biz 5 turdagi osh tuzini 800 gramm va 1 kilogrammdan qadoqlaymiz, — deydi korxonasi ishchisi Seregul Ershayeva. — Mahsulot

100 kilometr uzoqdagi Beltau tuz konidan olib kelindi. Xomashyoni bu yerda tozalab, iste'mol standartlariga moslashtirib qayta ishlaymiz.

Prezidentimizning 2023-yil 8-avgustdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini kengayib bormoqda. Masalan, Taxtakopir tumanidagi Dauqara mahallasi hududida "Taxtakopir gold tekstil mahsulotlari" korxonasi loyihasi start olgan. Ushbu investitsiya loyihasi uchun 4,5 gektar yer

ajratildi. Umumiy qiymati 25,4 million dollar bo'lgan loyihaga muvofiq yiliga 5000 tona ip ishlab chiqarilib, 11,1 milliard so'mlik tayyor mahsulot sotish rejalashtirilgan. Korxonada to'liq ishga tushgach, yuzlab yangi ish o'rni ochildi.

Bizga zarur texnologiya va uskunalar Shveysariyadan olib kelinadi. Bu borada joriy yil fevralda shartnoma tuzishga erishdik. Shu bilan birga, mutaxassis texnologlar ham ushbu davlatdan keladi. Ular 6 oy mahalliy ishchilarga kasb-hunar o'rgatadi, — deydi korxonasi direktori Nurlibek Aliyev. — Agar korxonamiz to'liq ishga tushirilsa, 300 kishi ish bilan ta'minlanadi. Yiliga 6300 tona paxta tolasini qayta ishlab, 5000 tona ip ishlab chiqarimiz. Tayyor mahsulotni Yevropaga sotishni maqsad qilganmiz.

Bundan chorak asr oldin suvsizlik sabab tumanidagi ayrim oilalar uyini tashlab, ko'chib ketishga majbur bo'lgan edi. Mana shunday olis hudud — Taxtakopir tumani bugun tom ma'noda yangilandi. Endi undan ko'chib ketish haqida hech kim o'ylab ham ko'rmaydi. Aksincha, Taxtakopirga keladigan sayyohlar yil sayin ko'payib bormoqda.

Qarateren ko'li bo'yida hech joyda o'xshashi yo'q etnoturistik manzil paydo bo'ladi. Ko'l tuman markazidan 40 kilometr masofada joylashgan. Bu hududning o'ziga xos xususiyatlarini ko'p ko'lbo'yida milliy koloritdagi qora uy (o'tovlar) tiklangan. Sayyohlar uchun zarur barcha sharoit hozirlangan. Mehmonlar ravon yo'llar orqali dam olish uchun ko'l bo'yiga keladi. Yana bir yaxshi jihati — mahalliy aholi ish bilan band. Ayni yo'z faslida ushbu maskan mahalliy va chet ellik sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Ha, bir paytlar tuman nomiga asos bo'lgan taxtakopirik bugun olis tarixga aylandi. Yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar esa hayot ummonidagi bugun va kelajak degan ikki qirg'oqni birlashtiradigan ishonch nomli mustahkam ko'prikka aylanib ulgurdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BUYRAK TRANSPLANTATSIYASI AMALIYOTI

Murakkab operatsiyalar uchun barcha sharoit muhayyo



Taqdir ekan, 2012-yil oxirida onamdan ayrildik. Biror marta buyragidan shikoyat qilmagan jonsarak ayolning ikkala buyragi ham qurib qolganini eshitib gangib qolgandim. Bu tashxis onamni viloyat markaziga olib borib, o'sha paytda juda kamyob bo'lgan apparatda tushirmagunimizcha ma'lum bo'lishgani hisobiga vaqtdan ancha yutqazgan ekanmiz.

Buyragi ishlamayotgani bois, zudlik bilan viloyat klinikasiga yuborilganida onamning ahvoli ancha og'irlashgandi. Kerakli tekshiruvlardan so'ng 8-9-vaqtga olib chiqishimiz kerakligi aytiladi. Bo'limga kirakannimiz, "SBB" degan qisqartirishga ko'zim tushdi. Oliy ma'lumoti bo'lmas-da, onam bizning aqlimiz yetmagan ko'p narsani bilardi.

— Bu sun'iy buyrak bo'limi bo'lsa kerak, bolam. Operatsiya qilimiz deyishsa, rozi bo'laveringlar. Bir buyragim olib tashlansa, ikkinchisi bilan ham yashayveraman, — degandi onam rahmatli.

Yuragim "shuv" etdi. Nega onam bunaqa deyapti? Qayerdan bilyapti bularni?

Bo'lmda yosh yigitlar, kelinlar, hatto 9 yoshli qizchani ko'rib nihoyatda achindim. Onam singari xastaligini payqamay qolgan, kun sayin so'lib borayotgan nigohlar vahimimni ortirdi. Shunday ham, eng yaqin insonimni yo'qotib qo'yishdek xavotir qalbimni qora tutun kabi qoplab olgandi. Ichki bir kuch hadeb "onangni uyga olib ket", derdi.

Shifoxonada o'tayotgan tashvishli kunlarimizning birida qishlog'imizdan bir oilaning shoshib biz yotgan bo'limga kirayotganini ko'rdim. Ko'zimga issiq ko'ringan mahalladoshlar diyordan quvondim, biroq "le, sizlar nima qilayapsiz bu yerda, kim o'zi bemoz?" degan xavotirli so'rov haligi qora quyuni battar quyulashirdi. 2-3 yildan buyon bu yerga gemodializ muolajasiga qatnaydigan bu oila onam shu bo'limning bemozi ekaniga ishonishi kelmasdi. Qo'shni ayol tahlil natijalarini so'radi. Qog'ozlarga ko'z yugurtira turib, "Karotini baland ekan-u", deya bosh chayqaganida, ichimda nimadir uzilib ketganday bo'ldi. Ayolning yuzida chuqur qayg'u bor edi. Men hech narsaga tushunmay, "Endi nima bo'ladi?"

deb so'radim. "Alloh shifo bersin", deya er-xotin shoshganicha gemodializ xonasiga kirib ketdi.

O'zini bildirmagan kasallikni davolashga juda kech qolganimizni kun sayin tushunib yetayotgandim. Gemodializ muolajasi uchun kelayotganlarimning holati esa og'usiz qolgan g'yovhandning tirab, ayanhli ahvolga tushishini eslatardi. Muolajadan so'nggina ular yana o'z holiga qaytardi. 9 yoshli qizning ota-onasi farzandini shu holatda ko'rmaslik uchun uyidan boshqa bor biositni sotib bo'lganini aytdi. "Bolam yana bir oz yashasin, deya har narsaga tayyor bo'lar ekansiz-da", deydi behoralar. Men esa onamning gemodializga ro'baro' bo'lmagunimiz, yengilroq shifo topishini astoydil so'radim. Chekka tuman markazidan kunora bu yerga yetib kelish, kunora kerakli mablag' bilan uzluksiz ta'minlab turish oson emasdi. Haligi mahalladoshlarimizning katta o'g'li tinim bilmay kirakashlik qilib, topgani shu apparat uchun sarflanishini aytganida, "Iloho, hech kim bu og'ir dardga muhtalab bo'lmasin, viloyat markaziga qatnab, bor-budidan ayirlmasin", degandim. Orasira qarindoshlarim yordamini aytmaganida, bunaqangi tashvishdan manaman degan oilaning ham tinkasi quriydi. Shunday bo'lsa-da, kun sayin har nega rozi bo'la boshladik. Jon omon bo'lsa, qolganlari topilar, dedik. Afsuski, gemodializ qabul qilishga ham, bitta buyrak bilan yashashga ham ulgurmadim onam sho'rik. Juda-juda kech qolgandim. Qo'li olti, oyog'i yetti bo'lib, hali dala, hali uy yumushlariga yugurgan soppa-sog' onamning bir haftada dunyodan ko'z yumgani butun mahalla ayollarini sarosimga solib qo'ydi. Ertasigayoq hammasi birin-ketin buyragini tekshirtirgani viloyat markaziga yo'ldi...

Bo'lar ekan-ku...

O'shanda tumanimiz shifoxonasi, poliklinikasida zamonaviy tibbiy texnologiyalar tugul, durustroq oddiy apparatlar ham yo'q edi. Yaqinda Qo'rg'ontepa tumani tibbiyot birlashmasida ilk bor buyrak ko'chirish amaliyoti o'tkazildi degan xabarni eshitib, ko'zimga yosh keldi. Bo'lar ekan-ku! To'g'ri, jarrohlik amaliyoti Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi professori Fazliddin Bahridinov, viloyatdan kelgan shifokorlar ko'magida bajarilgan. Biroq birinchi qadam tashlandim, u yog'iga yo'l ochilaveradi. Murakkab operatsiyalarda qatnashaversa, mahalliy mutaxassislar ham zarur tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lib boradi. Go'zal Qurbonova singari yosh xodimlar esa mahorat maktabida chiniqadi, ko'zi o'rganadi. U ilk bor buyrak ko'chirish amaliyoti chog'i poxtaxtdan kelgan shifokorga havas qilganini to'qlinlab gapirdi. Shunday ustozlarga shogird bo'lish sharaflari ekanini aytdi.



Tibbiy taraqqiyot

Fazliddin akadan tumandagi sharoit haqida so'raganimizda, bu amaliyotni bajarish uchun hamma narsa yetarli ekanini, xususan, retsiyent va donor uchun bir-biriga qaragan operatsiya xonasi mavjudligini ta'kidladi.

— Sharoit bor bo'lgani uchun ham bu yerga keldik. O'tgan safar shunday operatsiyalar Shahrixon tumanida o'tkazgandik. Operatsiyalarimiz muvaffaqiyatli o'tyapti, — deydi professor.

Biz esa har ikki yurdoshimizning salomatligi barqaror bo'lib turgani, katta mablag' sarflab poxtaxtda davolanmaganidan quvondik.

O'zimiz juda yaxshi his qilyapman, — deydi opasining buyragi bilan sog'lom hayotga qaytgan Doniyor Hakimov. — Operatsiyadan keyin uch kuncha og'riq bo'ldi. Hozir esa hammasi joyida. Har kuni 200 ga chiqib ketadigan qon bosimim ham bezovta qilmayapti. Kuniga 4-5 martalab "tez yordam" chaqirish, kunora dialeza qatnash yo'q. Barchasi uchun

o'z kasbining ustasi bo'lgan shifokorlarga rahmat.

Bemordan bizni donor, ya'ni opasi bilan bog'lashini iltimos qildik. Opaning shu yerda, mehmonlar bilan ovora ekanini eshitib, ko'nglimiz yorishdi. Uning: "Yaratganga shukr, belimiz baquvvat. Uyg kelganimizdan buyon har kuni yo'qlovchilar kelib turibdi. Ularning barchasidan "Baraka toping, asl tug'ishganning ishini qildingiz", degan so'zlari eshitib, kuchimga kuch qo'shiyapti", degan quvnoq gaplari ko'nglimizning bir chetidagi xavotirini tarqatib yubordi.

Shifokorlardan mingdan-ming rozimiz. Juda katta mehnat qilishdi. Chet elga bormay, o'zimizda ham amaliyot o'tkazish mumkin ekan. Ukamning hayoti saqlab qolingani uchun otonam shifokorlarni har kuni duo qilyapti. Ular buyragini bermoqchi ham bo'ldi. Biroq yoshi 60 dan oshgani uchun donor bo'la olmas ekan. Ikki yildan buyon jigaramning shu dard bilan

olishayotganiga, sillasi qurib borayotganiga ortiq chidab turolmadim. To'g'risi, har qanday vaziyatga rozi edim. Ko'pchilikning bitta buyrak bilan yashab yurganini ko'rganim uchunmi, natija yaxshi bo'lishidan umid uzmadim, — deydi donor Mahfuza Xursanova. — Avval poxtaxtda bordik. U yerdagilarga sharoitimizni tushuntirdim. Ota-onam oddiy odamlar ekanini, ukamning shu bosqichga yetib kelgunicha bo'larimiz bo'lganini aytdim. Operatsiyaga mablag'imiz yo'qligini ham yashimadim. Hamma narsamizni sotib bo'lgandik-da, axir. Gemodializni bepul olganimizda ham kunlik muolajalarga ancha-muncha mablag' ketib qoldirdi. Endi

34 ga kirgan ukam hayotdan umid uzolmayotganini ich-ichimizdan his qilardik. So'lg'in yuziga boqaverib, o'zimiz ham bemozdek bo'lib qoldik. Onam "Botaligida buyragidan suv oldirdingandik. Keyin yaxshi bo'lib ketgani uchun befarq bo'lib qolgan ekanmiz-da", deya afsuslanaverdi. Eng muhimi, poxtaxtdan nomud qaytmadik. "Prezident qarori bo'lsa, sizlarga yordam beramiz", deyilganida, xursandlikdan o'zimizni qo'yarga joy topolmay qoldim. Operatsiya bo'lishini eshitgan ukam ham rosa quvondi.

Transplantatsiya chet elda emas, o'zimizda bo'layotganiga xayrixohlar ko'paymoqda

Prezidentimizning tegishli qarorlari bilan mamlakat bo'ylab nefrologiya, gemodializ

xizmatlari ko'rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Sun'iy buyrak apparatlari, sun'iy buyrak bo'limlari soni keskin ortdi. Yildan yilga uskunalar, moslamalar yangisiga almashirib borilyapti. Germaniyaning eng ilg'or apparatlaridan foydalanilayotib. Bularning samarasi o'laroq, buyrak ko'chirish operatsiyalari ham ancha takomillashdi. Gemodializ muolajasi uchun zarur bo'lgan 14 nomdagi sarflov vositalari davlat tomonidan berilyapti. Besh nomdagi dori-darmon esa bemorlarning turar joyi bo'yicha bepul tarqatilyapti.

Tibbiyotning birlamchi bo'g'ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan yaqinda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, endi o'tkazish imkonini bo'lgan jarrohlik amaliyoti tumanlarning o'zida o'tkaziladigan bo'ldi. Gap mablag'da emas. Chekka tumanlarda ham tibbiyotni rivojlantirish, murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatiga odamlarni ishonitirish katta yutuq. Ayniqsa, yaqin yillarda Hindistonga borishga ham rozi bo'lgan odamlarning buyrak ko'chirishdek nozik amaliyotning tumanda o'tkazilishiga xayrixoh bo'layotgani salmoqli natija.

— Buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyotining oddiy xirurgik operatsiyalardan farqi shundaki, bunda ham xirurgik, ham immunologik jarayonni hisobga olish zarur, — deydi Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi qon tomir xirurgiyasi va buyrak transplantatsiyasi bo'limi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi Akrom Ahmedov. — Immunologik jarayonda tajriba, salohiyat yetarli bo'lmasa, operatsiya natijasiz bo'ldi. Bu jarrohlik amaliyotini chet elda o'tkazib kelganlarning aksariyati uzoq yashamagani sababi ham shunda. O'sha paytlarda qariya nazorat uchun laboratoriya darajasi, dori-darmon ta'minoti, kadrlar, moddiy-texnik baza yetishmasligi buyrak transplantatsiyasi o'tkazishimizga to'sqinlik qilgan. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda buyrak transplantatsiyasini o'tkazish jadallashdi. Bugungacha kelib nafaqat Toshkentda, balki viloyat markazlarida, hatto tumanlardagi shifoxonalarda ham bu amaliyot o'tkazilyapti. Xususan, Qashqadaryoning Kitob tumanida, Termiz shahrida, yaqindagina Urganchda shunday murakkab operatsiyalarni o'tkazdik. Murakkabligi — bir paytda donordan buyrakni olish va bemorga qo'yish ishlari bajariladi. Markazimizda donorning buyragi laparoskopik usulda, ya'ni kichik kesma orqali olinadi. Bunda donordan amaliyotdan keyingi yaraning kichikligi, erta reabilitatsiya hisobiga shifoxonada yotish muddati ham qisqaradi. Chunki donorning xavfsizligi birinchi o'rinda turishi va yuz foiz ta'minlanishi shart. Operatsiyadan keyingi nazorat asosiy jihatdir. Shuning uchun har bir bemor vaqti-vaqti bilan markazimizga yoki viloyat markazlarida maxsus tayyorlangan transplantolog-nefrologlar nazoratida tekshiruvdan o'tib turadi. Retseptiyentlar ular nazoratida bo'lib, davlat tomonidan bepul dori-darmon bilan ta'minlanadi.

Garchi sun'iy buyrak, gemodializ degan so'zlar eng og'ir kunlarimizni eslatib, yaramni yangilasa-da, bugungi bemorlar hayotida bu so'zlarning ahmiyati butunlay boshqacha o'rin tutayotganidan xursand bo'laman. Hozir buyrak transplantatsiyasi amaliyoti o'tkazilyotgan 6 ta markazning barchasida murakkab operatsiya uchun kerakli sharoitlar muhayyo.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ortga qaytmas islohotlar

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash — inson huquqlari, adolat va inklyuziv taraqqiyotning uzviy qismi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu boradagi tizimli va izchil islohotlar mamlakatning yangilanish va ochiq jamiyat sari intiluvchanligiga yorqin misoldir.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda gender tenglik sohasidagi tajriba almashuv, ta'lim dasturlari, monitoring va baholash mexanizmlari keng joriy etilyapti. Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, YXHT, Yevropa Ittifoqi, UNICEF kabi tashkilotlar bilan amaliy loyihalarni yo'lga qo'yilgan.

Islohotlarning yangi davrida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Birgina 2024-yilning o'zida 21 ta hujjat ishlab chiqildi.

Ushbu yo'nalishdagi yangilanishlarga mos ravishda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 21 foizdan 45 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetgani e'tiborli.

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinib, davlat siyosatidagi uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlar aniq belgilab olingani ham ayni yo'nalishdagi muhim voqeadir. Zero, bu xalqaro reyting va indekslarda yuqumli mavqeiini yaxshilash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish imkoniyatini kengaytirdi. Buning natijalarini gender tenglikka bag'ishlangan jahon reytinglarida ham o'z aksini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun 2024" indeksida beshta eng ilg'or o'zgarishni amalga oshirgan davlatlar qatoriga kirdi. Bu islohotlar O'zbekiston reytingining 11,9 punkt ko'tarilishiga olib keldi. Natijada "Ayollar, biznes va qonun 2024" indeksida maksimal 100 baldan 82,5 ball to'plangan. Bu Markaziy Osiyoda eng yaxshi natija bo'lib, xalqaro ko'rsatkichlar mamlakatda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning samarali ekanidan dalolat beradi.

INSONIYLIK VA TENG IMKONIYATLAR FALSAFASI



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunda gender diskriminatsiyasi tushunchasi, teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun davlatning majburiyatlari, jumladan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi choralar belgilangan. Qonunga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari barcha fuqaroga jinsdan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish majburiyatini oladi. Shu bilan birga, ayollarning davlat boshqaruvida, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ishtiroki, huquqiy himoyasi va iqtisodiy mustaqilligi ta'minlanishi qonuniy asosga ega bo'ldi. Ushbu qonun jamiyatning barcha sohasi

— ta'lim, mehnat, davlat boshqaruvi, oilaviy munosabatlarda va boshqalarda erkaklar va ayollar uchun teng sharoit yaratishni maqsad qiladi.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun esa ayollarning shaxsiy xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ichki ishlar organlari, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishtirokida tizimli himoya choralari nazarda tutadi.

Open Data Watch tashkilotining so'nggi hisobotida dunyo bo'ylab gender ma'lumotlarining mavjudligi va ochiqlikni baholaydigan Ochiq gender ma'lumotlari indeksida O'zbekiston jahondagi gender

siyosatini yuritayotgan eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar uchun ta'lim olish imkoniyati kengayib, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, kasb-hunar egallashi va tadqiqotchi sifatida shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratilmoqda. Davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ta'limda tenglikni ta'minlash, qizlarning to'liq va bosqichma-bosqich ta'limga jalb qilinishi belgilangan.

Natijalarga e'tibor qaratsak: 2016-yilgacha oliy ta'lim muassasalarida o'qigan qizlar ulushi 27 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yil yakuniga kelib, qariyb 100 foiz oshib, 52,2 foizni tashkil etdi. Ilmiy sohada faoliyat yuritayotgan ayollar soni ham ortmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, fan doktorlari orasida xotin-qizlar ulushi 24 foizni tashkil etadi. 2000 dan ortiq tadqiqotchi xotin-qiz ilmiy loyihalarda qatnashmoqda.

Prezident stipendiyalari va oliy ta'lim grantlarida xotin-qizlarga alohida kvotalar ajratilgan. Masalan, 2024/2025-o'quv yilida ta'lim krediti oluvchi talabalarning 47 foizini qizlar tashkil etdi. Magistratura tahsil olish uchun ta'lim to'lovi esa davlat byudjetidan to'liq qoplab berilmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida xotin-qizlar faolligining ortishi, davlat va jamiyat boshqaruvida munosib o'rin egallashi "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ajralmas qismidir. Hozirgi bosqichda ayollar faqat ijtimoiy hayotning ilojisiz qatlamida emas, balki davlat siyosatini shakllantirish, iqtisodiy va diplomatik sohalarda ham muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etmoqda.



teng huquq va imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish ustuvor ahmiyat kasb etadi.

Har qanday jamiyatda gender tenglikni ta'minlash ta'lim sohasidan boshlanadi. Bugun O'zbekistonda qizlarning maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalariga qamrovi yil sayin oshib bormoqda.

Mehnat bozorida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayollarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, himoyalangan mehnat sharoiti yaratish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirildi. Ayniqsa, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalari, shuningdek, bank-moliya sektorida faol xotin-qizlar soni keskin oshdi.

Jamiyat rivojida gender tenglik muhim o'rin tutadi. Agar xotin-qizlar faqat oilaviy vazifalar bilan cheklangan bo'lsa, ularning potensialidan to'liq foydalanish mumkin emas. Shundan kelib chiqib, tashkilotlar va davlat apparatida ayollarning faol ishtiroki bugunning muhim talabi ekanini ta'kidlash joiz. Xalqaro tajriba va milliy ijobiy o'zgarishlar natijasida ayollar nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarda ham o'z o'rini topmoqda.

Jamiyatda xotin-qizlar rolini mustahkamlash uchun yangi strategiyalar va amaldagi islohotlar muhim. Ular, o'z navbatida, kelgusi avlodga ijtimoiy haq-huquqlar, tenglik va imkoniyatlar masalasida yorqin namuna bo'ladi.

Gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlar, shubhasiz, natija bermoqda. Lekin bugungi eng muhim vazifa xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ishtirokini kuchaytirishdir. Bunda davlat va jamiyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chorasi ko'rinishi kerak.

Gender tenglik faqat ayollar huquqlarini himoya qilish emas, balki butun jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy shartidir. Sohadagi keng qamrovli va izchil islohotlar mamlakatda adolati, inklyuziv va teng imkoniyatlarga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish sari tashlangan muhim qadam. Yangi O'zbekistonda ayollarga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar mamlakatning barcha fuqarolari uchun adolatli kelajak poydevoridir.

OrziguL QOZIXONOVA,
Oliy Majlis Senati qo'mita raisi,
Sohibjamol JUMAYEVA,

Markaziy bankning Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha Maslahat kengashi raisi o'rinbosari



Umr zavqi

Har bir inson ko'nglida bolalikdan ungan, vaqt o'tsa-da, so'nmaydigan bir orzu bo'ladi. Kimdir moviy gumbaz uzra parvoz etishni, bulutlar oralab suzishni istaydi, yana kimdir o'zga sohada kamol topishni niyat qiladi. Ammo ba'zan bu istaklar armonga aylanishi ham mumkin.

115 YOSHDA USHALGAN ORZU

Armon deganda, yaqinda ijtimoiy tarmoqda mashhur bo'lgan, Prezidentimiz tomonidan yuborilgan maxsus samolyotda parvoz qilib, bir umrlik orzusi amalga oshgan 115 yoshli qashqadaryolik otaxon, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ro'ziyob Sattorov siymosi ko'z oldimda gavdalanadi. Asr bilan yuzlashib, uni ham ortda qoldirgan insonning uchoqda parvoz qilishga jazm etishi orzuning yoshi yo'qligini hammamizga isbotladi. Otaxon bu ishi bilan armonlari ushalishi mumkinligini, buning uchun insonda qat'iy istak va bir oz tavakkalchilik bo'lishi kifoya ekanini ko'rsatdi.

Bu haqda so'z yuritganda, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i, Ro'ziyob ota bilan guruhlashish baxtiga muayassar bo'lgan katta leytenant Akbar Kamolovning xotiralari eslash o'rini. Adabiyotga oshno qalbi

onadek qadri deganda qanchalar haq gapni aytgan-a?

Shu payt Ro'ziyob bobo tomirlari ko'rinib qolgan barmoqlari bilan ostonani imlab ko'rsatdi: "Vatanim mana shu yerdan boshlanadi. Demak, uning uchun men qadrlil, qalbim uchun esa u".

Subhatning eng hayajonli nuqtasi otaxonning ko'zlarini munchoqdek chevarasi cho'qqillab kelib, uning tizzasiga o'tirganida yuz berdi. Bolakayning jajji qo'llari bobosining oppoq soqollarini avaylab o'ynar ekan, Ro'ziyob otaning yuzida mamnunlik balqidi, egilgan gavdasi rostlandi.

Agar daraxtning ildizi chuqur ketgan bo'lsa, u har qanday dovulga bardosh bera oladi. Bular mening mevalarim. Ularga gard yuqishini istamayman. Jonim tanamda ekan, ildizim chuqurlashaveradi...

Otaxon yoshlikdagi armonini eslab, bugungi kunlarga shukronalik bilan so'zida davom etdi: "Bolalikdan o'ylardim, samolyotda uchish bizga nasib etarmikan deb. Keyin bu haqda o'ylamay ham qo'ydim. Qarilik alomatlar — soqol oqarib, tizza qaltiraydigan bo'ldi. Uni tan oldik. Keyin fursat bo'lganida bir og'iz yoshlikdagi o'ylarni oshkor qildik, ammo ishonch yo'q edi. Lekin buni qarangi, so'zim yerda qolmadi. Prezidentimizga rahmat! O'sha temir qanotli "qush"da uchdim. Yuqoridan vatanimni boricha ko'rdim. Bu vatanda barcha orzular amalga oshadi. Faqat qattiq istak kerak, xolos".

bilan voqeitli go'zal o'shatishlar ila bayon etadigan Akbar aka o'sha uchrashuv tafsilotlarini o'ziga hayajon bilan hikoya qiladi:

— Boboga ko'zim tushdiyu nafasim bo'g'zimga tiqildi. Uning nigohlari qalbidamudrab yotgan og'ir toshni bir zarbada chilparchin qilib tashladi. 115 yoshli inson hayotga talpinib yashayapti. Beixtiyor ayni navqiron yoshida bo'lmag'ur tuyg'ularga berilib, o'ziga berilgan omonat jonga xiyonat qilayotgan ayrim yoshlar xayolimdan o'tdi. Ularni shu otaxon bilan uchratirish kerak degan o'y miyamda charx urdi. Shu tariqa bir guruh harbiy xizmatchilar bilan o'tmishga yuzlashish uchun Ro'ziyob boboning xonadoniga bordik.

Subhat asnosida boboning ko'ngli derayo ekaniga amin bo'ldim. Uning so'zlarida kecha bilan bugun o'rtasidagi buzilmas ko'priikka o'xshardi. Shunda angladimki, bobolarning begonasi bo'lmaydi, zotan, hammamiz bir odamning farzandlarimiz.

— Inson ba'zan isyonkor bo'lib qoladi, — dedi Ro'ziyob ota titiroq ovoza. — Nega undayligini o'zi ham bilmaydi. Oxirida buni yoshga yo'yadi. Aslida, bu xato. Hammasi tarbiyaga borib taqaladi. Boshida yo'lni to'g'ri ko'rsatib, maqsadlarni aniqlab berish kerak.

Otaxon bir zum jim qolib, ko'zlarini ohista yumdi.

— Tanamiz bizga berilgan omonat, — deya davom etdi u. — Biroq qurg'ur yuragimiz unga aziyat beradi. Keyin xiyonatga o'tamiz, ozor ko'chalarida sarson-sargardon kezamiz. Ota-bobalarimiz kindik qoni to'kilgan zaminni

Shohruh SAIDOV,
kapitan

Mulohaza

Bolajonlar tili chiqqan paytdan to aqlini taniguniga qadar ota-onasini turli savollarga ko'mib tashlaydi. Zotan, biz, kattalar ham abadiyatga qadar o'z-o'zimizga savol berishdan to'xtamaymiz. Qanday yashasam to'g'ri bo'ladi? Nima qilsam hayot yo'llarida sirg'anmayman, do'st va dushmanim oldida boshim egilmaydi? Muhabbat nima, baxt-chi? Bu kabi savollarga javob izlash uchun yo'l ko'rsatuvchi, maslahatdosh izlanadi. Ana shunday daqiqalarda ota-onam maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi, bilmaganini bildirib, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Keling, shu o'rinda bir voqeani misol tariqasida keltirib o'tay, zora, bu biz — kattalarni yanada sergaklikka chorlasa.

“DADAJON, SIZNING BIR KUNLIK VAQTINGIZNI SOTIB OLMOQCHI EDIM...”

YOXUD OTALAR OILA USTUNI VA IBRAT TIMSOLI BO'LSIN

Ota har doimgidek kech, horg'in kayfiyatda ishdan qaytdi. Ishxonadagi yugur-yugurlar va topshiriqlar uni bir oz charchatgan edi. Tungi soat o'n ikkiga yaqinlashgan bo'lishiga qaramay, darvoza oldida uni 7 yoshli o'g'li Isroiljon kutib oldi.

— Ure, dadajonim keldi, assalomun alaykum, dadajon!

— Vaalaykum assalom, haliyam uxlamadingmi, toychog'im, axir yarim kecha bo'ldi-ku?

— Yo'q, sizni kutdim, dadajon. Bitta savol bersam maylimi?

— Mayli, o'g'lim, beraqol, qanday savol bo'ldiki, sen uxlamay meni sabrsizlik bilan kutib turibsan?

— Dadajon, bir soatda qancha pul topasiz? — ko'zlarini javdiratib so'radi Isroiljon bolalarcha soddalik bilan. Kutilmagan savol otani dovdirab qo'ydi. U hayron bo'lib o'g'liga qaradi, so'ngra bosiqlik bilan so'radi.

— Bemahalda bunday bo'lmag'ur savol

“ Biz — ota-onalar farzandlarimizga yetarlicha vaqt ajratyapmizmi? To'g'ri, qorni to'q, usti but, uyimizda barcha shart-sharoitlar yetarli, lekin ularning murg'akkina ko'ngliga teran nazar solyapmizmi? Jajjigina yuraklarida kechayotgan beg'ubor savollarga shunchaki bir bolalikdagi o'tkinchi savollar deb qaramayapmizmi? ”

Isroiljon boshini gunohkordek yerga egib, “Xo'p bo'ladi”, dedi va xonasiga kirib ketdi. Alibek esa garchand juda toliqqan bo'lsa-da, o'rni yotganidan so'ng xayollari har yon to'zib, ko'ziga yuq kelmadi. Bolaning javdirab turgan ko'zlarini xayolidan ketmadi. O'g'lini urishgini uchun ko'ngli buzildi.

Qiziq, o'g'limga 60 ming so'm pul nimaga kerak bo'ldi ekan, biror narsa yegisi yoki olgisi

Nega urishdim o'zi, 60 ming so'm deb uxlamay kutib o'tirgan bolamni ranjittim-a degan xayollar bilan o'rindan turdi va o'g'li yotgan xona eshigini sekingina chertdi.

— Isroiljon, uxlamadingmi bolam?

— Uyg'oqman, — degan bo'g'iq ovoz eshitildi ichkaridan. “O'g'lim yig'labdi”, ko'nglidan o'tkazdi Alibek, so'ngra xonaga kirib, chiroqni yoqdi.

— Bolam, senga sal qattiqroq gapirdim, xafa bo'lmadingmi, mana, so'ragan puling. Xo'sh, endi ayt-chi, bu pulga nima olmoqchi eding?

Isroiljon dadasi uzatgan pulni olmay, yostig'i tagidan bir siqim mayda pullarni chiqardi. Alibek hayron bo'lib:

— Oh-ho, shuncha puling bor ekan-ku, o'g'lim, 60 mingni nima qilasan? — deya qayta so'radi.

— Dadajon, pulim borlikka bor-u, sal kamroq ekan-da. Men siz va oyim bergan pullarni ishlatmay yig'ib yuribman. To'g'risini aytam, sizning bir kunlik vaqtingizni yiqqan pullaringa sotib olmoqchi edim. Hisoblab ko'rsam, yetmas ekan. Bir kuningizni sotib olib, siz bilan suzishga bormoqchiman. O'g'il bolalar ko'proq vaqtini otasi bilan yolg'iz o'tkazishi kerak ekan. Shunda aqlli va qo'rqmas bo'lib voyaga yetarkan. Bog'cha opamiz aytdi. Doim kech qaytasiz, vaqtli qaytgan kuningiz charchadim, bezovta qilmanglar, dam olaman deysiz. Lekin qo'lingizdagi telefonidan yo'k shamaysiz. Dam olish kunlari choyxonaga yoki boshqa yerga ketasiz. Xullas, men sizning ko'p emas, haftada bir kunlik vaqtingizni



qayerdan xayolinga keldi? Qolaversa, u sening ishing emas, shu yoshingdan pul topishni o'ylayapsanmi?

— Dadajon, iltimos, ayt qoling, buni bilishim juda ham zarur, — deya iltijoii tarzda termildi bolakay.

Bola ko'ngli nozik. Otaning ko'ngli yumshadi va o'g'liga qarab: — Bir soatda 30 ming so'm ishlayman, bolam, — dedi.

Isroiljon qo'llarini bukib, bir nimalarni sanaganday bo'lib, lablari pichirladi, so'ng dadasiga qarab:

— Dadajon, menga 60 ming so'm pul berib turing, iltimos, — dedi.

Endi otaning jahli chiqdi.

— Bor, kirib uxla, pul so'rash uchun uxlamay o'tiribsanmi yarim kechagacha. Qayerdagi keraksiz o'yinchoq mashina sotib olmoqchimsan, yig'ishtir o'yinchoq o'ynashni, yaqinda maktabga chiqadigan bolaning ahvolini qara, — dedi jahli bilan. So'ngra unani indamaygina kuzatib turgan ayoliga qarab:

— O'zi ishdan charchab kelaman, bolalaring esa uxlab o'miga asabga tegadigan savollar beradi, qarasang bo'lmaydimi? — deya to'ng'illadi. Keyin o'g'liga:

— Bor, kirib yot, boshqa bunday bo'lmag'ur savollar bilan boshimni qotirma, — dedi.

“ Farzandlar umr gulshanini bezab turgan nozik nihol, iforli bir guldir. Ularni turli nigohlar, zarrali illatlar, yovuz kuchlardan asrash, muhofaza qilish, ayniqsa, o'g'il bolalarni haqiqiy er yigitlar qilib kamolga yetkazish barchamizning asosiy vazifamiz. ”



birga yurishimiz uchun sotib olmoqchiman. Maylimi, dadajon!

Alibek mushtdaygina o'g'ilchasining so'zlaridan hangu mang bo'lib qoldi, bo'g'zini nimadir achishtirganday bo'lib, ko'zlariga yosh keldi. Ko'nglini o'g'riqli bir savol o'rtadi. “Bolam, dilingda kemtiklik boridmi hali? Yoningda bo'la turib, mehrimga zor qildimmi seni, bo'talag'im”, lablari sekingina shivirladi: “Meni kechir, toychog'im, albatta boramiz. Sendan hayotimni ham ayamayman, bolam!”.

Sizga misol tariqasida hikoya qilayotgan kichkinagina hayotiy lavhamiz tagida aslida, katta bir savol bor.

Biz — ota-onalar farzandlarimizga yetarlicha vaqt ajratyapmizmi? To'g'ri, qorni to'q, usti but, uyimizda barcha shart-sharoitlar yetarli, lekin ularning murg'akkina ko'ngliga teran nazar solyapmizmi? Jajjigina yuraklarida kechayotgan beg'ubor savollarga shunchaki bir bolalikdagi o'tkinchi savollar deb qaramayapmizmi?

Asrdoshim, zamondoshim, o'z begimning bek o'g'lonlari, xonadon sohiblari. Qalbingiz chiroqlari, hayotingiz mazmuni, xonadoningiz ko'riki bo'lgan farzandlarimizga har qanday vaziyat va sharoitda ham boringizni bag'ishlang. Bunga vaqtingni yo'qligi, ishing ko'pligi yo'ki o'ladagi sharoitning haminqadarligi bahona bo'lmasin.

Erkaklarimiz choyxonaga, gapga, ayollarimiz esa sartaroshxona, kosmetolog va dugonalari huzuriga bot-bot chopmasdan, uyida ko'zlarini yo'lga to'rt bo'lib kutib turgan bolasi, nevarasining bag'riga shoshilsa, ular uchun yetarlicha vaqt ajrata olsa, ba'zi bolalar tarbiyasidagi nosog'lom vaziyatlarning oldi olinarmidi?

Birovga aql o'rgatish, yo'l ko'rsatish aslida, juda oson, balki bu fikrlarim kimlargadir yoqmas, ammo har birimizning qalbidamizda “bolam — borlig'im”, degan tuyg'u mujassam ekan, yana bir bor yosh avlodning beg'ubor ko'nglida, mittigina qalbidamiz kechayotgan o'y-xayollariga, orzulariga sergaklik bilan qarash, ularni tinglash asosiy vazifamiz ekanini unutmasligimiz kerak.

Zero, farzandlar umr gulshanini bezab turgan nozik nihol, iforli bir guldir. Ularni turli nigohlar, zarrali illatlar, yovuz kuchlardan asrash, muhofaza qilish, ayniqsa, o'g'il bolalarni haqiqiy er yigitlar qilib kamolga yetkazish barchamizning asosiy vazifamiz.

Abu Homid G'azzoliy hazratlari: “Bilgil, bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota-onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh hamda suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, baddaxlikka yuz tutadi va halok bo'ladi. Bunda gunoh yuki shu ko'yg'a solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi”, deya ogohlantirgani bejiz emas.

Zotan, yaxshi tarbiya saodatli kelajakdan, yomon tarbiya esa jaholatdan darak beradi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhir: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy